



ABU RAYHON BERUNIYNING “QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLAR” ASARIDAGI AYRIM ANTROPONIMLARNING GRAMMATIK TUZILISHI

UrDU mustaqil izlanuvchisi

Hamida Orislanova

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asaridagi antroponimlarning grammatik tuzilishi o‘rganiladi.

Asardagi shaxs nomlari grammatik jihatdan sodda, yasama va qo‘shma nomlarga ajratilib tahlil qilinadi. Antroponimlarning lug‘aviy o‘zagi, ularning semantik va morfologik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

Аннотация: В данной статье изучается грамматическое строение антропонимов в труде Абу Райхана Беруни «Памятники минувших поколений». Личные имена в произведении классифицируются на простые, производные и сложные антропонимы. Рассматриваются лексическая основа антропонимов, их семантические и морфологические особенности.

Annotation: This article examines the grammatical structure of anthroponyms in Abu Rayhan al-Biruni’s work "Monuments of Past Generations". Personal names in the work are classified into simple, derived, and compound anthroponyms. The lexical roots of anthroponyms, as well as their semantic and morphological features, are analyzed.

Kalit so‘zlar: Antroponimika, Beruniy, qadimgi xalqlar, grammatik tuzilish, sodda antroponimlar, yasama antroponimlar, qo‘shma antroponimlar, etimologiya.

Ключевые слова: Антропонимика, Беруни, древние народы, грамматическая структура, простые антропонимы, производные антропонимы, сложные антропонимы, этимология.

Keywords: Anthroponymy, Biruni, ancient peoples, grammatical structure, simple anthroponyms, derived anthroponyms, compound anthroponyms, etymology.



1. Kirish. Bugungi kunda jahon tilshunosligida ham, o'zbek tilshunosligida ham antroponimika sohasi ko'plab tadqiqotlar uchun o'rganish obyekti bo'lib kelmoqda. Antroponimika [antropo..+yun. onyma] onomastikaning kishi ismlari, ularning kelib chiqishi, tarqalishi va sh.k masalalarni o'rganuvchi bo'limi [A.Madvaliyev, D.Xudoyberganova – O'zbek tilining izohli lug'ati – I tom A-D, 89]. Antroponimlar xalq tili, madaniyati va ma'naviyatining eng qadimiy merosi bo'lib, ularda shu xalqning o'tmish tarixi, tili, turmush tarzi, diniy-falsafiy qarashlari, e'tiqodi, orzu-armonlari aks etadi. Tilshunos olim E.Begmatov ham buni alohida ta'kidlab quyidagicha fikr yuritadi: "Antroponimlar xalqning tarixi va ma'naviyatini o'zida mujassamlashtirgan leksik birliklar hisoblangani uchun ularning ma'no, yuzaga kelish, rivojlanish, qo'llanish xususiyatlarini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyatga ega" [Бегматов Э.А., 2013:78]. Shu sababali ham antroponimika xuddi toponimika, zoonimika, etnonimika kabi onomastikaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Antroponimlarga qiziqish, ularni tahlil qilib o'rganish uzoq tarixga borib taqaladi. Dastlabki ilmiy asarlarda shaxs ismlarining kelib chiqishi, ularning ma'no qatlamlari va ijtimoiy ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Masalan, yunonistonlik mashhur faylasuf Platonning "Kratil" asarini antroponimikaning tarixiy poydevori sifatida ko'rish mumkin, ammo u ismlarni tadqiq qilishda falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilganligi ta'kidlanadi. Antroponimika XIX-XX asrlarda onomastikaning tarkibiy qismi sifatida shakllandi. O'zbek tilshunosligida ham bu yo'nalish o'tgan asrning 60-70 yillarida rivojlanib, qator ilmiy asarlar yaratildi. Shunga qaramay, tilshunos olim E.Begmatov aytganidek: "...o'zbek antroponimlarning bir qator nazariy va amaliy muammolari o'zining ilmiy asosi va teran tadqiqini kutmoqda. Masalan, antroponimlar semantikasi va motivatsiyasi, antroponimlarni tasnif qilishning ilmiy tamoyillari, antroponimlarni qardosh va noqardosh tillar bilan qiyosiy o'rganish, antroponimlarni davrlashtirish tamoyillari, o'zbek tarixiy antroponimiyasi, antroponimlarning turli uslublarida, ayniqsa, antroponimiya fondiga ijtimoiy-lisoniy, milliy-madaniy, falsafiy-etnik jihatdan yondashish masalalari, antroponimlarning izohli, imloviy transkriptsiya lug'atlarini tuzishning leksikografik talab va tamoyillari, tarixiy yozma obidalar tilidagi antroponimlarni o'rganish, o'zbek



tili antroponimikasini yaratish muammolari va boshqalar” [Бегматов Э.А., 2013:4,5]. Ushbu maqolamizda Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asaridagi bazi antroponimlarni grammatik tuzilishini tahlil qilishga harakat qildik.

2. Metodologiya. Malumki, inson hayotining bir qismi bo‘lgan antroponimlar jamiyat hayotida ham muhim o‘rin tutadi, shu sababli kishi nomlari xalq tarixining bir qismidir. Ularda xalqlarning turmush tarzi, tarixi, tili, madaniyati o‘z aksini topadi. Shu tufayli tarixiy asarlarni antroponimik tahlil qilish shu davrda yashagan xalqlarning dunyoqarashi haqida qimmatli ma’lumot beradi. Chunki har bir xalqning urf-odatlar, turmush tarzi, diniy ishonchlari ularning ismlarida namoyon bo‘ladi. Asardagi antroponimlarni tahlil qilish jarayonida tasviriy va tasniflash metodlaridan foydalanildi. Bilamizki, tasviriy metod barcha ijtimoiy-tarixiy va tabiiy fanlarda keng qo‘llaniladi. Shunga ko‘ra bu metod boshqa metodlar orasida qo‘llanish ko‘lami jihatidan eng yuqori o‘rinda turadi. “Tasviriy metodning asosiy vazifasi shundaki, u muayyan sinxron aspektga tegishli lisoniy birliklarni, hodisalarni tasvirlash, tavsiflash jarayonida ularni tahlil qilib boradi, tildagi vazifasini, o‘rnini, qo‘llanishini, tuzilishini, o‘ziga xosliklarini aniqlaydi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi” [Rasulov Ravshanxo‘ja, 257].

3. Natijalar. Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida qo‘llanilgan antroponimlarni grammatik tuzilishi jihatidan tahlil qilish, o‘sha davr antroponimika ko‘lamini belgilashga va uni hozirgi davr antroponimlarining tuzilishi bilan taqqoslab tadqiq etish uchun boy manba bo‘la oladi. O‘tgan asrda o‘zbek nomshunosligi mustaqil soha sifatida shakllanganligi bois uning tarkibiga kiruvchi antroponimikaga oid ilmiy tadqiqotlar ham kengaydi. Shu davrdan boshlab o‘zbek antroponimiyasi xilma-xil yo‘nalishda o‘rganila boshlandi. O‘zbek antroponimiya sohasini tadqiq qilishda E.Begmatov va uning shogirdlari tomonidan qilingan ilmiy izlanishlar bu sohaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Xususan, N.Husanov, M.Norqulova, G‘.Sattorov va S.Rahimovlarning tadqiqotlarida o‘zbek ismlarining lisoniy tarkibi, o‘z va o‘zlashgan qatlamlari, ismlarning lisoniy



tuzilishi va yasalishi, ismlarning ma'nosi, ismlar imlosi, mintaqaviy antroponimiyaga xos ba'zi xususiyatlar va boshqalar yoritib berilgan.

4. Muhokama. Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asaridagi antroponimlar negizida yotgan lug'aviy o'zaklar, yasama va qo'shma leksema kabi so'z shakllari turli-tumandir. Mana shu xususiyat asardagi antroponimlarni grammatik tuzilishiga ko'ra o'rganishni va ularning lisoniy tabiatini ochishni talab qiladi. Beruniy asaridagi antroponimlarni grammatik tuzilishiga ko'ra 3 guruhga ajratish mumkin:

1. Sodda tuzilmali (tub) antroponimlar.
2. Yasama tuzilmali antroponimlar.
3. Qo'shma tuzilmali antroponimlar.

Sodda tuzilmali antroponimlar. Sodda tuzilmali antroponimlar grammatik strukturasiga ko'ra yasama va qo'shma tuzilmali antroponimlarga qarama-qarshi qo'yiladi. Bunda asosiy mezon antroponim tarkibi bitta so'zdan iborat ekanligidir. “Sodda antroponimlar ular uchun asos bo'lgan leksemaning tuzilishiga mos keladi va mohiyatan tub nomlardir” [Берматов Э.А.,2013:217]. Asardagi antroponimlarning bir qismini sodda tub nomlar tashkil qiladi. Masalan, Adnon, Adrian, Bilqis, Varvara, Galen, Gomer, Daniyol, Dovud, Doro, Yevklid, Yelisey, Dosifey, Jafna, Zevs, Ioann, Iraj, Konstantin, Kambiz va boshqalar.

Yasama tuzilmali antroponimlar. Antroponimlarning kelib chiqishi, shakllanishi va ma'nosi insoniyatning madaniyati, dini, urf-odatlar va tili bilan chambarchas bog'liq. Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida sodda tuzilmali antroponimlar bilan bir qatorda yasama tuzilmali nomlarni ham uchratamiz. Yasama antroponimlar boshqa so'zlardan yoki so'z qismlaridan hosil qilinadi. Asarda uchrovchi ayrim yasama antroponimlar nisbiylikni, mansublikni yoki biror joyga, hududga, makonga oidlikni ifodalovchi –iy qo'shimchasidan hosil bo'lganini ko'ramiz.

Balxiy, Bobiliy, Saraxsiy va Ko'hiy kabi antroponimlarda asos qism joy nomini bildirib, shaxsning o'sha joyga mansubligini ko'rsatadi. Buxturiy antroponimida -iy qo'shimchasi ismning ijtimoiy mansubligini bildirsa, Sufyoniy

antroponimida mazkur qo'shimcha shaxsning kelib chiqishi, qaysi avlodga yoki qabilaga tegishlilikini ifodalagan.

Qo'shma tuzilmali antroponimlar. Qo'shma antroponimlar ikki yoki undan ortiq so'zning birlashuvidan tashkil topadi va bu qismlar birgalikda yangi ma'no hosil qiladi. Ko'pincha shaxsning nasl-nasabi, ijtimoiy mavqeyi yoki diniy e'tiqodini aks ettiradi. Asarda Beruniy tilga olgan xalqlar, xususan, hind, fors, arab va boshqa madaniyatlarda ikki yoki undan ortiq so'zning birlashuvi orqali hosil qilingan qo'shma ismlar keng tarqalgan. Masalan, **Ardashir** antroponimi fors tilidan olingan bo'lib, qadimgi Eron shohlaridan birining nomidir. Ism ikki asosiy qismdan iborat:

1. "Arda" – bu qadimgi fors tilida "adolatli", "pok" yoki "toza" ma'nosini anglatadi.
2. "Shir" – bu forsha so'z bo'lib "sharaf", "qahramon" yoki "shoh" ma'nosini bildiradi. Ism umumiy ma'noda "adolatli shoh" yoki "pok shoh" degan ma'nolarni ifodalagan.

Amirtayus ismi sanskrit tilidan olingan bo'lib, buddaviylik madaniyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tushunchani ifodalaydi. Bu ism ham ikki qismdan:

1. Amrita – sanskritcha so'z bo'lib "o'lmaslik", "abadiylik" ma'nosini anglatadi.
2. Ayus – sanskrit tilida "hayot" yoki "umr" degan ma'noni bildiradi. Umumiy ma'noda "abadiy hayot" yoki "cheksiz umr" deb talqin qilingan.

Afrosiyob antroponimi ham fors-tojikcha qo'shma ism hisoblanib, ikki qismdan iborat:

1. **Afro** – bu so'z qadimgi fors tilida "yuqori", "baland", "ulug'" ma'nolarini bildiradi.
2. **Siyob (Siyavush)** – forsha "Siyovush" yoki "Siyob" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "qora otliq", "zulmat otliq" yoki "zodagon" ma'nolarini anglatadi.

5.Xulosa. Beruniy asaridagi antroponimlarni grammatik tuzilishiga ko'ra tahlil qilish natijasida ularning tarixiy, lingvistik va madaniy jihatlari aniqlandi. Sodda, yasama va qo'shma antroponimlar orqali qadimgi xalqlarning nomlash tamoyillari va ismlarning shakllanish xususiyatlari ochib berildi.



Bu tadqiqot Beruniyning ilmiy merosini chuqurroq o'rganish hamda o'zbek antroponimikasining rivojlanishiga hissa qo'shish imkonini beradi.

FODALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Begmatov E.A. O'zbek antroponimikasining nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2013.
2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: O'zMU, 2010.
3. Husanov N. O'zbek onomastikasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2004.
4. Norqulova M. O'zbekcha antroponimlarning struktur-semantik xususiyatlari. – Toshkent: O'zMU, 2017.
5. Sattorov G'. O'zbek ismlarining lisoniy tadqiqi. – Samarqand: SamDU, 2015.
6. Rahimov S. O'zbek tarixiy antroponimlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.